SANOAT TARMOQLARINI HUDUDLAR KESIMIDA RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA AHAMIYATI

Qarshi davlat universiteti
Mustaqil tadqiqotchisi
Srajidinova Nodira Shavkatovna
nodirasrajiddinova@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur tezisda sanoat tarmoqlarini hududlar kesimida rivojlantirishning iqtisodiy asoslari va ularning mintaqaviy iqtisodiyotdagi ahamiyati tahlil qilingan. Hududiy sanoat salohiyatidan samarali foydalanish, ishlab chiqarish infratuzilmasini takomillashtirish hamda investitsion faollikni oshirish orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, sanoat tarmoqlarini diversifikatsiyalash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishning ustuvor yo‘nalishlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalarida sanoatni hududiy rivojlantirish bandlikni oshirish, eksport salohiyatini kuchaytirish va hududlarning raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim omili ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.*


Kalit so‘zlar: *sanoat tarmoqlari, hududiy rivojlanish, mintaqaviy iqtisodiyot, sanoat salohiyati, investitsion faollik, innovatsion texnologiyalar, diversifikatsiya, iqtisodiy o‘sish, raqobatbardoshlik, eksport salohiyati.*

Raqamlashtirish sharoitida sanoat tuzilmasini axborotlashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim vazifa hisoblanadi. Bu jarayon investitsion loyihalarni tanlashda innovatsion mezonlardan foydalanish, texnologik samaradorlikni baholash va resurslar qaytimi

imrconf.com

ko‘rsatkichlarini aniqlashni nazarda tutadi. Natijada, sanoat tuzilmasining tarkibiy diversifikatsiyasi va qiymat zanjiri chuqurlashuvi ta’minlanadi.

Xususan, blokcheyn texnologiyasi moliyaviy operatsiyalar va aktivlarni ishonchli hisobga olish uchun mo‘ljallangan ko‘p funksional axborot tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. U ma’lumotlar bloklaridan tashkil topgan zanjir bo‘lib, ma’lumotlarning o‘zgarmasligi va shaffofligini ta’minlaydi. Sanoat boshqaruvida blokcheyn texnologiyasi ta’minot zanjirini monitoring qilish, kontraktlarni avtomatlashtirish (smart contracts) hamda moliyaviy operatsiyalarni optimallashtirish imkonini beradi. Shu orqali korxonalarning moliyaviy intizomi mustahkamlanadi va raqobatbardoshlik darajasi oshadi. Mintaqa sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini ta’minlash zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Diversifikatsiya sanoatning bir yoki cheklangan tarmoqlarga qaramligini kamaytirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli ishlab chiqarish ulushini oshirish va iqtisodiy risklarni pasaytirishga xizmat qiladi. Raqobatbardoshlik esa mahsulot sifati, tannarxi, innovatsion salohiyati hamda boshqaruv samaradorligi bilan belgilanadi. 1.2.1-rasm



imrconf.com

1.2.1-rasm. Mintaqa sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshlikni ta’minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari konseptual modeli

Zamonaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda lokal va global miqyosdagi omillarni hisobga olgan holda nazariy, amaliy va metodologik yondashuvlar uyg‘unligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Bu esa mintaqa sanoatining xalqaro raqobat maydonidagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Hozirgi bosqichda innovatsion texnologiyalar faol joriy etilayotgan bo‘lsa-da, ularning iqtisodiy samaradorligi va ehtimoliy xavflari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi bilan bog‘liq ko‘plab texnologiyalar - sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar tahlili, IoT va blokcheyn - sanoat boshqaruvida yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. 1.2.1-rasmda mintaqa sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshlikni ta’minlashning o‘zaro bog‘liq tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari konseptual tarzda ifodalangan. Model tarkibiy qayta qurish, klasterlashuv va kooperatsiya, innovatsion-investitsion faoliyat, raqamli boshqaruv hamda raqobat ustunligini shakllantirish mexanizmlarini yagona tizimga birlashtiradi.

Konseptual model markazida raqamli boshqaruv infratuzilmasi (ERP, MES, SCADA) joylashgan bo‘lib, u ishlab chiqarish jarayonlarini integratsiyalash, resurslardan samarali foydalanish va real vaqt rejimida monitoringni ta’minlash orqali barcha mexanizmlarni bog‘lovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tizimlar sanoatning tarkibiy modernizatsiyasi va innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar: Bu esa mintaqa sanoat tuzilmasini boshqarishda strategik rejalashtirish va prognozlash jarayonlarini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi. Bizning fikrimizcha, diversifikatsiya va raqobatbardoshlikni ta’minlash mexanizmlarining raqamli transformatsiya bilan uyg‘unlashuvi

imrconf.com

mintaqa sanoatini global iqtisodiy tizimda barqaror o‘rin egallashiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Porter M. *Competitive Advantage*. – Free Press, 1985.
2. Glazyev S. *Teoriya dolgosrochnogo tekhnologicheskogo razvitiya*. – Moskva, 1993.
3. Yasin E. *Modernizatsiya i ekonomicheskiy rost*. – Moskva, 2011.
4. Abdurahmonov Q. *Mehnat iqtisodiyoti*. – Toshkent, 2019.
5. Shodmonov Sh. *Milliy iqtisodiyot nazariyasi*. – Toshkent, 2018.
6. Vahobov A. *Investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish*. – Toshkent, 2020[1] O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ–404-son, 13.04.2016 y.
7. O‘zbekiston Respublikasi “Audit faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ–677-son, 25.02.2021 y.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.02.2020 yildagi PF–4611-son Farmoni.

imrconf.com